



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN  
HAL QILUV QARORI**

**Chiroqchi tumani 2022-yil 2-avgust 4-1807-2201/1026-sonli ish**

Chiroqchi tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi A.Qodirov raisligida, sudya yordamchisi A.Chuliyevning kotibligida, arizachi vakili M.Ortiqov (ishonchnoma asosida) ishtirokida, arizachi [REDACTED] ning javobgar [REDACTED] oilaviy korxonasiga nisbatan bergan arizasi bo'yicha ishni [REDACTED] binosida ochiq sayyor sud majlisi muhokamasida ko'rib chiqib, quyidagilarni

**aniqladi:**

arizachi [REDACTED] (bundan buyon matnda – arizachi deb yuritiladi) sudga ariza bilan murojaat qilib, javobgar [REDACTED] oilaviy korxonasi (bundan buyon matnda – javobgar deb yuritiladi)ning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni o'n kundan ko'p muddatga to'xtatishni so'ragan.

Sud majlisida ishtirok etgan arizachi vakili arizada keltirilgan vajlarni qo'llab-quvvatlab, ma'lumotnoma taqdim qilib javobgar sud kuniga qadar soliq hisobotlarni topshirmaganligini bildirib arizani qanoatlantirishni so'radi.

Javobgar ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risida tegishli ravishda xabardor qilingan bo'lsa-da, sud majlisiga kelmadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 220-moddasiga asosan sud ishni javobgarning ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim topdi.

Sud ishdagi hujjatlarni o'rganib chikib, quyidagi asoslarga ko'ra arizachining arizasini qanoatlantirish lozim degan to'xtamga keldi.

Ish hujjatlardan ko'rinishicha, [REDACTED] oilaviy korxonasi tomonidan soliq hisoboti va (yoki) moliyaviy hisobot, kameral nazorat natijalari bo'yicha tafovutlarning asoslari yohud aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan tartibda va muddatda [REDACTED] ga taqdim qilinmagan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 111-moddasiga ko'ra, Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin. Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni o'n kundan ko'p muddatga to'xtatib turish to'g'risidagi qaror soliq organining iltimosnomasiga asosan sud

tomonidan qabul qilinishi mumkin. Bunda soliq to'lovchining (soliq agentining) bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari sud tomonidan qaror qabul qilingunga qadar to'xtatib turiladi.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risida qaror elektron shaklda soliq organi tomonidan bankka yuboriladi. Bir vaqtning o'zida soliq organi tomonidan soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilishi to'g'risida xabarnoma buning sabablarini ko'rsatgan holda yuboriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish soliq organi tomonidan mazkur soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) soliq majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

1) ushbu soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organiga moliyaviy va (yoki) soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o'n kun ichida taqdim etilmaganda;

2) soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organining kameral soliq tekshiruv natijalari bo'yicha talabnomasiga tushuntirishlar va (yoki) tuzatishlar belgilangan muddatda taqdim etilmaganda, shuningdek soliq to'lovchi tomonidan soliq organi talab qilgan hujjatlar taqdim etilmaganda;

3) soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslarini ko'rsatilgan hududga yoki binoga (bundan turar joylar mustasno) kirishiga to'sqinlik qilishda. Soliq organi mansabdor shaxsining kirishiga to'sqinlik qilinishi uning o'zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi bankdagi hisob varaqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turadi;

4) soliq to'lovchining (soliq agentining) o'zi ko'rsatgan manzilda yo'qligida.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarning to'xtatib turilishi banklar tomonidan soliq to'lovchining (soliq agentining) barcha hisobvaraqlari bo'yicha barcha chiqim operatsiyalari to'xtatib turilishini anglatadi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi tomonidan soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati o'tgach o'n kun ichida taqdim etilmagan taqdirda, bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror mas'ul ishtirokchining yoki ushbu konsolidatsiyalashgan guruh barcha ishtirokchilarining operatsiyalariga nisbatan soliq organi rahbari (uning o'rinbosari) tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarning to'xtatib turilishi fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda ko'rsatilgan to'lovlarga, shuningdek qonun hujjatlariga

muvofig undiruvga yo'l qo'yilmaydigan banklardagi hisobvaraqlarga tatbiq etilmaydi.

Bayon etilganlarga ko'ra, sud arizani qanoatlantirishni, O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi, 1-qismi, 19-bandiga ko'ra, arizachi va javobgar huquqiy ta'sir choralarni qo'llash to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat bojini to'lashdan ozod qilinganligini inobatga olib davlat boji undirmaslikni lozim deb topdi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 112-113, 118, 176-179, 186, 215, 222-moddalarini qo'llab, sud

#### **Q AROR Q ILDI:**

Arizachi - [REDACTED] ning arizasi qanoatlantirilsin.

[REDACTED] oilaviy korxonasi banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari (budjetga to'lovlar, ish haqi, nafaqalar, shuningdek ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida sog'liq va hayotga yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lab beriladigan mablag'lar bundan mustasno) chiqish qismi soliq hisobotlari taqdim etilgunga qadar to'xtatib qo'yilsin.

[REDACTED] oilaviy korxonasi xizmat ko'rsatuvchi barcha banklar hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yishga sabab bo'lgan holatlar to'liq bartaraf etilgandan so'ng [REDACTED] oilaviy korxonasi tomonidan taqdim etiladigan yozma ko'rsatma (qaror)ga asosan hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni tiklasin.

Mazkur hal qiluv qarori ustidan o'n kunlik muddatda apellatsiya tartibida shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

**Sudya**

**A.Qodirov**